

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY
BANKI AKSIYADORLIK JAMIYATI**

**JAMG‘ARMA OMONATI TO‘G‘RISIDAGI
SHARTNOMA № _____**

_____ shahri

«__» _____ . 20__ y.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ (bundan buyon “BANK” deb yuritiladi) nomidan № _____ ishonchnomaga asosan faoliyat yurituvchi _____ bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi _____ bir tomondan, va “_____” MCHJ (bundan buyon “OMONATCHI” deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi Direktor _____, ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. BANK OMONATCHIdan cheklanmagan miqdorda pul mablag‘larini jamg‘arma omonati shartlari asosida qabul qiladi va OMONATCHI nomiga mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq jamg‘arma omonati hisobvarag‘ini ochadi.

1.2. “Jamg‘arma hisobvarag‘i” — BANKda ochilgan № 0000000 hisobvaraqni anglatadi. Shartnoma asosida Omonatchi nomiga ochilgan omonat hisobi Shartnoma amal qilish muddati tugaganda (Omonat qoldiqlari bo‘lmasa) yopiladi.

1.3. Jamg‘arma omonat shartlari:

“Shartnoma valyutasi” — So‘m;

“Jamg‘arma omonatining boshlang‘ich summasi” — 00000,00 so‘m (00000 so‘m).

Jamg‘arma omonatiga - qo‘shimcha pul mablag‘lari qabul qilinadi;

Shartnoma bo‘yicha foiz stavkasi — yillik _____ %;

Prolongatsiya - nazarda tutilmagan;

Kapitalizatsiya - yo‘l qo‘yilmaydi;

Omonat summasini qisman chiqarish (asosiy summani) – nazarda tutilgan;

Omonatining muddati — _____ kun;

Maksimal summa — cheklanmagan;

1.4. Omonat bo‘yicha foizlar «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risidagi»gi 2023 yil 29 sentyabrdagi №3460-sonli Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

1.5. Bank tomonidan qabul qilingan Omonat mablag‘larining qaytarilishi O‘zbekiston Respublikasining 2025 yil 18 fevraldagi 1031-sonli «Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan kafolatlanadi.

1.6. Shartnomaning amal qilish davrida Omonatchining hisob raqamiga ta‘qiq solingan yoki hisobdagi operatsiyalar vaqtincha to‘xtatilgan holatlarda, hisobdagi pul mablag‘larini foydalanish imkoniyati bo‘lmagan davr uchun foizlar hisoblanmaydi.

1.7. Agar omonatning qaytarish sanasi dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelsa, omonatni qaytarish dam olish/bayram kunlaridan keyingi birinchi ish kuniga ko‘chiriladi. Bu vaqtda omonatni qaytarish kunida Omonatchiga dam olish/bayram kunlari uchun qo‘shimcha hisoblangan foizlar bilan birga to‘lanishi kerak bo‘lgan foizlar to‘lanadi.

II. TOMONLARNING HUQUQLARI

2.1. Omonatchining huquqlari

2.1.1. Mazkur Shartnomada belgilangan tartibda va muddatda Omonat summasini hamda hisoblangan foizlarni olish.

2.1.2. Omonat bo'yicha hisobvaraqa qo'yilgan mablag'lar va foizlar haqida to'liq ma'lumot olish.

2.1.3. BANK xizmatlaridan foydalanishda o'z huquqlarini himoya qilish va shartnoma shartlari buzilganda tegishli choralarni ko'rish.

2.1.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Omonatchi huquqlaridan foydalanish.

2.2. BANKning huquqlari

2.2.1. Omonatchining mablag'laridan foydalanish bo'yicha amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq cheklovlar qo'yish.

2.2.2. Qonuniy sabablarga ko'ra, OMONATCHIning hisobvaraqdagi operatsiyalarini vaqtincha to'xtatish yoki rad etish.

2.2.3. Davlat organlarining ijro hujjatlari kelib tushgan taqdirda, Omonatchi e'tiroz bildirishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda tegishli choralarni (hisobdagi mablag'larga arest qo'yish, mablag'larni akseptsiz tarzda yechib olish, hisob bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish va boshqalar) ko'rish.

2.2.4. Vakolatli davlat organlari tomonidan hisob raqamga taqiq qo'yilgan taqdirda bunday taqiq olib tashlangunga qadar omonat summasiga foizlar hisoblashni to'xtatish.

2.2.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq hisob bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish yoki ularni amalga oshirishdan bosh tortish.

2.2.6. OMONATCHIning beparvoligi yoki Shartnoma shartlarini buzishi natijasida BANK ko'rgan barcha zararlarni to'liq qoplashni talab qilish.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. BANKning majburiyatlari:

3.1.1 OMONATCHIning jamg'arma omonati bo'yicha hisob-kitob xizmatlarini amalga oshirish;

3.1.2. 1.3-bandda ko'rsatilgan muddat tugagach, jamg'arma omonati summasini Shartnoma valyutasida OMONATCHIning XI-bo'limda ko'rsatilgan hisobvarag'iga qaytarish;

3.1.3. Har oyning 25-kunida (hisoblash bazasi — 365 kun) Shartnoma bo'yicha belgilangan foiz stavkasi asosida hisoblangan foizlarni XI-bo'limda ko'rsatilgan hisobvaraqa o'tkazish. Agar 25-kun dam olish kuniga to'g'ri kelsa, to'lov keyingi ish kunida amalga oshiriladi;

3.1.4. Foizlarni hisoblash va to'lash tartibi bo'yicha OMONATCHIni o'z vaqtida va to'liq xabardor qilib borish;

3.1.5. Tashkiliy-huquqiy shakl o'zgarishi, qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi haqida OMONATCHIni oldindan xabardor qilish.

3.1.6. Omonat bo'yicha foizlarni shartnomada belgilangan stavka, tartib va muddatlarda hisoblash va Omonatchiga to'lash.

3.1.7. Omonatchining yozma so'rovlari asosida omonat hisobvaraqdan mablag'larni qaytarishni ta'minlash, qonunchilikda belgilangan cheklovlar bundan mustasno.

3.2. OMONATCHIning majburiyatlari:

3.2.1. Tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarishi, qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi haqida BANKni oldindan xabardor qilish.

3.2.2. Jamg'arma hisobvarag'iga mablag'larini shartnoma shartlariga muvofiq o'tkazish.

3.2.3. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda amaldagi qonunchilikka, BANKning ichki qoidalari va tartib-taomillariga qat'iy rioya qilish.

3.2.4. BANK xizmatlaridan foydalanganda yolg'on, noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlar bermaslik.

3.2.5. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish qonunchiligiga, shuningdek xalqaro iqtisodiy sanksiyalarga rioya etish.

3.2.6. Omonatchi jamg'arma hisobvarag'ida joylashtirilgan mablag'larni jamg'arma omonati muddati tugashidan oldin qaytarib olishni istagan taqdirda, BANKni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan tartibda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bunda mablag'lar BANK tomonidan Shartnomaning XI-bo'limida ko'rsatilgan hisobvaraqqa o'tkaziladi.

IV. HISOB-KITOB TARTIBI

4.1. OMONATCHI Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida 1.3-bandda ko'rsatilgan boshlang'ich summani jamg'arma omonati hisobvarag'iga o'tkazadi. Aks holda, Shartnoma tuzilmagan deb hisoblanadi.

4.2. OMONATCHI omonat summasini hisobvarag'idan yechib olish niyati haqida Bankni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik ko'deksida nazarda tutilgan tartibda yozma ravishda xabardor qiladi.

4.3. BANK foizlarni oyda bir marta (25-kuni) yoki jamg'arma omonat hisobvarag'i yopilganda OMONATCHIning hisobvarag'iga o'tkazadi.

4.4. Foizlar BANKka mablag'lar kelib tushgan kundan keyingi kundan boshlab, mablag'lar qaytarilishidan oldingi kungacha yoki omonat muddati tugaguniga qadar hisoblanadi. Hisobvaraqqa nisbatan vakolatli davlat o'rgani tomonidan xatlov qo'yilgan davrda foizlar hisoblanmaydi.

4.5. Shartnoma muddati tugaganda yoki bekor qilinganda, BANK jamg'arma omonati summasini belgilangan tartibda mazkur shartnomaning XI-bo'limida ko'rsatilgan Omonatchining hisobvarag'iga o'tkazadi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. BANK ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida OMONATCHIga yetkazilgan barcha zararlar uchun OMONATCHI oldida javobgar bo'ladi, quyidagilar bundan mustasno:

a) BANKga bog'liq bo'lmagan uchinchi shaxslarning harakatlari, beparvoligi, ehtiyotsizligi yoki xatolari oqibatida yuzaga kelgan zararlar;

b) BANK o'z nazoratidan tashqaridagi holatlar natijasida yuzaga kelgan zararlar.

5.2. Agar OMONATCHIning jamg'arma omonatida joylashtirilgan pul mablag'lari vakolatli davlat organlarining jamg'arma omonat hisobvarag'iga nisbatan qonun

hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etilgan inkasso topshiriqlari, hisobvaraqdagi mablag'larga arest qo'yish, mablag'larni akseptsiz tarzda yechib olish, hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish va boshqa majburiy ijro choralariga asosan yechib olinsa, BANK bunday yechib olish uchun javobgar bo'lmaydi.

5.3. Omonatdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lash muddati kechiktirilgan taqdirda, Bank Omonatchiga kechiktirilgan to'lov summasining 0,01 foizi miqdorida, kechiktirilgan har bir kun uchun penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov summasining 20 foizidan oshmasligi kerak.

5.4. Agar Omonatchi mazkur shartnomaning 4.1-bandida nazarda tutilgan muddatlarda shartnoma bo'yicha boshlang'ich summani tegishli omonat hisobvarag'iga o'tkazmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun 0,01 foizi miqdorida, kechiktirilgan har bir kun uchun penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov summasining 20 foizidan oshmasligi kerak.

VI. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Shartnoma imzolangan kundan kuchga kiradi va mazkur shartnomaning 1.3. bandida nazarda tutilgan omonat muddati tamomlanguniga qadar amal qiladi.

6.2. Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar faqat yozma qo'shimcha kelishuv orqali kiritiladi.

VII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu Shartnomani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar talabnoma yuborish yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda tomonlar ularni qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga topshirish huquqiga egadirlar.

VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

8.1. Ushbu Shartnomani tuzish va (yoki) ijro etish jarayonida Tomonlar, ularning affillangan shaxslari hamda xodimlari har qanday shaklda, bevosita yoki vositachilar orqali, har qanday shaxslarga ularning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir ko'rsatish, xo'jalik faoliyatida noqonuniy afzalliklarni saqlab qolish yoki qo'lga kiritish maqsadida pul mablag'larini to'lamaydi, to'lashni taklif qilmaydi va bunday to'lovlarga yo'l qo'ymaydi, shuningdek boshqa moddiy boyliklarni berishni amalga oshirmaydi.

Shartnomani tuzish va (yoki) ijro etish jarayonida Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari ushbu Shartnoma maqsadlari uchun qo'llaniladigan qonunchilikka muvofiq pora berish yoki pora olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish, shuningdek jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish sifatida baholanadigan harakatlarni amalga oshirmaydi.

8.2. Agar Tomonlardan biri ushbu Shartnoma maqsadlari uchun qo'llaniladigan qonunchilikka muvofiq pora berish yoki pora olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish, shuningdek jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish sifatida baholanadigan harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini buzsa, boshqa Tomon sud qaroriga asosan Shartnomani to'liq yoki qisman bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega bo'ladi.

Mazkur bandga muvofiq Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Shartnoma bekor qilinishiga tashabbus ko'rsatgan Tomon sud tartibida ushbu buzilish natijasida yuzaga kelgan haqiqiy zararni undirishni talab qilish huquqiga ega.

IX. FORS-MAJOR HOLATLAR

9.1. Agar shartnoma shartlarining buzilishi yengib bo'lmaydigan kuchlar holatlari (zilzila, o'pirilish, to'fon, qurg'oqchilik, urush holati, qamal, hukumat taqiqlari va boshqalar), texnik nosozliklar yoki Tomonlar oldindan ko'ra olmagan ma'lumotlar almashinuviga to'sqinlik qiladigan boshqa holatlar tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning to'liq yoki qisman buzilishi uchun hech bir Tomon javobgar hisoblanmaydi.

9.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida ushbu holatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab besh bank kunidan kechiktirmagan holda boshqa Tomonga yozma ravishda ushbu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari ilova qilingan tarzda xabar qilinishi kerak. Ikkinchi tomonni fors-major holatlari va ularning oqibatlarini to'g'risida xabardor qilmaslik yoki o'z vaqtida xabardor qilmaslik ushbu holatlarni javobgarlikdan ozod qilish uchun asos sifatida ko'rsatish huquqidan mahrum bo'lishga olib keladi.

9.3. Fors-major holatlari bartaraf etilgandan so'ng dastavval yuzaga kelgan Tomon ikkinchi Tomonni ushbu Shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarning tiklanganligi to'g'risida besh bank kunidan kechiktirmagan holda xabardor qilishi shart.

9.4. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlarning amal qilish muddati davriga uzaytiriladi.

X. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartishlar va qo'shimchalar tomonlarning kelishuviga asosan yozma ravishda rasmiylashtiriladi va har ikki Tomon imzolagandan so'ng yuridik kuchga ega bo'ladi.

10.2. Tomonlarning ushbu Shartnoma bilan yo'lga qo'yilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

10.3. Tomonlardan biri tugatilgan yoki qayta tashkil etilgan taqdirda, ushbu Shartnoma bo'yicha barcha huquq va majburiyatlar uning huquqiy vorisiga o'tadi.

10.4. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, har bir nusxa bir xil yuridik kuchga ega.

XI. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

«BANK»

«OMONATCHI»

Bank nomi

OMONATCHI nomi

Manzil

Manzil

X/r №

Vakolatli shaxs lavozimi

Vakolatli shaxs lavozimi

F.I.O.

F.I.O.